

**BO'RIBOY AHMEDOVNING "O'ZBEKISTON TARIXI MANBALARI"
ASARI ASOSIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIGA OID
MANBA VA ADABIYOTLARNI O'RGANISH.**

¹Jo'rayev Sardor

Termiz Davlat Universiteti talabasi

E-mail: sardorjurayev20012103@gmail.com,

²Norbekov Diyorbek

Termiz Davlat Universiteti talabasi

E-mail: norbekovdiyorbek13@gmail.com,

³Erkinova E'zoza

Termiz Davlat Universiteti talabasi

E-mail: erkinovae8@gmail.com,

⁴Esanov Hayitali

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: esanovhayitali@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7379772>

Annotatsiya: Quyidagi maqolada tarixchi va sharqshunos olim Bo'riboy Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" asari orqali Amir Temur va temuriylar davri tarixi, hamda asarda keltirib o'tilgan manba va adabiyotlar bilan ham yaqindan tanishib olishingiz mumkin. Xususan, asarni o'qish davomida temuriylar davri hayoti, xo'jalik yumushlari va shu bilan birgalikda hujjatlarning yuritilish tartibi, soliq va boshqa majburiyatlar bilan ham yaqindan tanishib borasiz.

Kalit so'zlar: Feodal tarqoqlik, mo'g'ul xonlari, vasiqa va vaqfnoma, Xoja Ahror Valiy, tobe hudular, Amir Qazog'on, Chig'atoy ulusi, soliq va majburiyatlar, davlat boshqaruvi, shaharlar hayoti.

Bo'riboy Ahmedov (12.08.1924-yil Andijon – 15.05.2002-yil Toshkent) – tarixchi va sharqshunos olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik (1989), tarix fanlari doktori. 1995-yildan Xalqaro Amir Temur jang'armasi raisi. Ahmedovning ilmiy faoliyati o'zbek xalqining etnik tarixi va shakllanishi, manbashunoslik, O'rta Osiyo xalqlarining X-XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, Temur va temuriylar davri tarixi hamda madaniyati kabi muhim yo'nalishlarga qaratilgan.

Ushbu maqolada olimning "O'zbekiston tarixi manbalari" asari asosida Amir Temur va temuriylar davri tarixi va manbashunosligi bo'yicha oz bo'lsada ma'lumotga ega bo'lasiz.

XIV asr o'rtalariga kelib Chig'atoy ulusining janubi-g'arbiy qismini tashkil etgan Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. Bu ayniqsa amir ul-umaro Qazog'on vafotidan (1358-yil) keyin kuchayib, mamlakat mayda qismlarga bo'linib ketdi. Masalan, Shahrizabzda Xoji barlos mustaqillik bayrog'ini ko'tardi.

Xo'jandda Boyazid jaloyir mustaqillik e'lon qildi, Balxda Amir Husayn xon etib ko'tarildi, Shibirg'onni Muhammad Apari egallaydi. Xuttalonda Kayxusrav o'zini podshoh deb e'lon qildi. Badaxshon yana mahalliy hukmdorlar – Badaxshon shohlari qo'llariga o'tdi.

Feodal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan bo'lgan Amir Temur ustalik bilan foydalandi va 1370-yili oliy hokimiyatni qo'lga oldi deyiladi asarda. Qo'shimcha tarzida asarda Amir Temurning 1370-1378-yillarda mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movarounnahr va Xurosonni o'ziga bo'ysundirgani haqida ham so'z yuritiladi. 1381-1402-yillar oralig'ida esa Amir Temur qo'shni mamlakatlar ustiga yurish qilib, Eron, Kavkaz orti, Iroq, Kichik Osiyo va Shimoliy Hindistonni istilo qildi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga (1376-1395-yillarda) qaqshatqich zarba berib, uning poytaxti Saroy Berkani egallagani haqidagi ma'lumotlar ham sanab o'tilgan.

Muallif Amir Temur va temuriylar davlatchiligi haqida so'z yuritar ekan quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi:

“ Amir Temur va temuriylar davlati tom ma'noda markazlashgan davlat emas edi. U mayda uluslarga bo'lingan holda boshqarilgan. Xususan, Amir Temur hayotlik chog'idayoq mamlakat 4 qismga bo'lingan edi: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seiston (markazi Hirot shahri) Shohruhga; G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga; Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga; Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi dastavval G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol tarzda beriladi.

Amir Temur davrida davlat tepasida rasman Chingiz avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish (1370-1380-yillar) va Sulton Maxmudxon (1480-1402-yillar) turadi, lekin amalda butun hokimiyat Amir Temur qo'lida edi. Uning vafotidan keyin esa bu tartib, ya'ni Chingiz avlodidan xon ko'tarish tartibi bekor qilinib bekor qilinadi va oliy hukmdorlar o'zlarini podshoh deb e'lon qiladilar. Viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat tarafidan tayinlangan dorug'alar qo'lida bo'ldi. Davlat ishlari asosan turli muassasa (devon) lar qo'lida bo'lgan. Din, shariat bilan bog'liq ishlar qozi va shayxulislom qo'lida edi.”

O'rta Osiyo va O'zbekistonning o'rta asrlar, xususan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishda ilmiy tekshirish instituti kutubxonalarida, davlat tarix arxivlarida, o'lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar va yozishmalarning ahamiyati benihoya katta. Bu – ortiqcha tushuntirish va izohga hojat bo'lmagan haqiqat. Lekin, ularni toppish, o'rganish va o'z o'rnida foydalanish o'ta qiyin.

Muddaoga ko'chadigan bo'lsak, huquqiy hujjatlarni ham, jamiyatda katta

nufuzga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida olib borilgan yozishmalarni ham bir yerdan, aniqrog'i bir yoki ikki asr ichidan, bir muzey yoki arxiv fondidan topib bo'lmaydi.

Quyida Amir Temur va temuriylar davri manba va adabiyotlari bilan birgalikda, yozishmalar, turli xil xat-hujjat va qabul qilingan qonunlar va ularning tasnifi orqali, ushbu davr xo'jalik hayoti, aholi turmush sharoiti va hukmdorlar siyosati bilan oz bo'lsada tanishish imkoniga ega bo'lasiz.

Amir Temur Movarounnahrda butun bir mustaqil davlatga asos soladi. Amir Temur hukmronligi davri o'sha davrda yashagan ko'plab tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan. B.Ahmedovning „O'zbekiston tarixi manbalari“ asarida Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomuddin Shomiy, Muinuddun Natanziy, Xofizu Abru, Mirzo Ulug'bek va boshqa bir qator tarixchilar tomonidan Amir Temur davri yoritiladi.

Sharafuddin Ali Yazdiy -15 asrning yirik tarixchi olimlaridan biri. Eronning Yazd viloyati Taft qishlog'idan. Sankt-Peterburglik olim A.T.Tohirjonovning ma'lumotlariga ko'ra olim yozgan asarlarning umumiy soni o'ndan ortiqdir. Ushbu asrlarining asosiy qismi astrologiya, tasavvuf, adabiyot, falsafa sohalari to'g'risidadir. Olim yozgan asarlar ichida eng mashhuri „Zafarnoma“dir. Ushbu asar muallifining re'jasiga ko'ra 3 qismdan iborat bo'lishi kerak bo'lgan. Ya'ni birinchi qismi Amir Temur tarixi haqida, ikkinchi qismi Shohruh Mirzo davri haqida , uchinchi qismi Ibrohim sulton davri voqealarini aks ettirishi kerak bo'lgan. Ammo bizgacha faqat birinchi qismi yetib kelgan. Taxminlarga ko'ra asarning qolgan qismlarini yozib tugallashga olim ulgurmagan. Amir Temurga bag'ishlangan birinchi qism 1425-yilda yozib tugatilgan. Asarning ilmiy qiymati shundaki ,bu asarda Amir Temur shaxsiga ikki tomondan baho berilgan. Ya'ni bir tomondan uning qattiqqo'lligi yozilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Movarounnahr, Xorazm, Xurosonni birlashtirishga qodir shaxs sifatida ulug'langan. Asardagi voqealar muallif tomonidan xolisona baholanishi uning ahamiyatini oshiradi.

1415 va1435yillar orasida temuriylardan bo'lgan Ibrohim Sulton xizmatida bo'lgan. Bu yillarda Ibrohim Sulton Eronning Fors o'lkasida hukmron edi. 1442–1446yillarda esa Yazdiy Sultoniya, Qazvin, Ray va Qo'mni o'z ichiga olgan viloyatning hokimi bo'lmish Mirzo Muhammad Sulton saroyida xizmat qilgan. 1446yilda temuriylar saltanatining oliy hukmdori Shohruh o'ziga bo'ysunishdan bosh tortgan nabirasi Mirzo Muhammad Sultonga qarshi qo'shin tortib boradi va uni isyonkorlikka undagan maslahatchilarini va tarafdorlarini qatl ettiradi. Gunohkorlar qatorida Sharafiddin Ali Yazdiy ham bor edi. Shohruh huzurida bo'lgan uning sevimli nabirasi Abdullatif (Ulug'bekning o'g'li) Ali Yazdiyini qattiq

so'roq qiladi. Bundan qoniqish hosil qilgan Shohruh Yazdiyni jazolashni o'z nabirasiga topshiradi. Abdullatif esa Sharafiddin Ali Yazdiyni tezda Hirotga jo'natib yuboradi va o'limdan saqlab qoladi.

Xofizu Abru. Olimning asl ismi bunday bo'lmagan. Faqat bu nom bilan mashhur bo'lgan. Xofizu Abru hayoti haqida ma'lumotlar kam. Abdurazzoq Samarqandiyning so'zlariga ko'ra olim Havofda tug'ilgan, Hamodonda tahsil olgan va 1430-yilda Zanjonda vafot etgan. Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra olim Amir Temur va o'g'li Shohruh Mirzo saroylarida istiqomat qilgan. Ular bilan yaqindan muonsabatda bo'lgan. Shohruh Mirzo topshirig'i bilan ikkita yirik asar yozgan. Asarlari faqat tarix sohasiga emas geografiyaga ham taalluqlidir

Tarixiy va tarixiy-geografik asarlar ("Zayli Zafarnomai Shomiy", "Zayli Jomi' ut-tavorix", "Tarixi Hofizi Abru", "Majmua attavorixi sultoniya", "Zubdat ut-tavorixi Boy-sunquriy") muallifi. "Zayli Zafar-nomai Shomiy" asari Nizomiddin Shomiynt "Zafarnoma"sig'a ilova bo'lib, asardagi tarixiy voqealar bayonini 1405-yilgacha davom ettirgan. "Zayli Jomi' ut-tavorix" Rashiduddin Fazlullodning "Jomi' ut-tavorix" asarining davomi bo'lib, unda Eronning 1304 - 70 yillardagi tarixi aks ettirilgan (1417). "Tarixi Hofizi Abru" nomi bilan mashhur tarixiy-geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasi va boshqa xaritalar berilgan. Bu xaritaning muhim tomonlaridan biri — gradus to'ri chizilganidir, uni geograflar Hofizu Abruning shoh asari deb hisoblaydilar. „Yo'llar va mamlakatlar asarida geografik joy nomlari ham uchraydi. Buxoro, Samarqand, Kesh, Naxshab, Termiz va boshqa shaharlarning geografik holati haqidagi ma'lumotlar ayniqsa qimmatlidir. Olim tomonidan yozilgan „Majmu-at tavorix" asarining to'rtinchi qismi Amir Temur tarixiga bag'ishlangan. Asar 1427-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Nizomuddin Shomiy - Zafarnoma asari muallifidir. Tarixiy manbalarda Nizomuddin Shanbi G'ozon nomi bilan mashhurdir. (Tabriz yaqinidagi Shanbi G'ozon degan joydan bo'lgani uchun shunday nom olgan).Tug'ilgan yili haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar mavjud emas. Manbalarda yozilishicha Amir Temur 1393-yilda Bag'dod shahrini ishg'ol qiladi va bu vaqtda Shomiy ham ushbu shaharda bo'ladi. Shomiy Amir Temur xizmatiga kiradi va 1404-yilgacha u bilan birga bo'ladi. 1402-yilda Amir Temur unga o'zining aniq va sodda tarixini yozib berishini buyuradi. Hukmdorning buyrug'i bilan Shomiy 1402-1404-yillarda Amir Temurning tarixini yozadi. Asar Amir Temurning hokimiyatga kelishidan boshlab 1404-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. "Zafarnoma" ni yozishda Amir Temurning munshiy va kotiblari ham nazm, ham qayerda forsiy va turkiy tillarda yozgan ma'lumotlar, muallifning 1400-1404-yillar davomida sahibqiron yurishlarida bo'lib, o'zi ko'rgan bilganlari, Hindiston

yurishi voqealari qismining bayoni uchun G'iyosiddin Alining "Ro'znomai g'azavoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") asari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. "Zafarnoma" tarixiy asar sifatida XIV-XV asr boshida Amir Temur va temuriylar hukmronligi davridagi O'rta Osiyo, Oltin O'rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o'z ichiga olgan.

Asarning Sharafuddin Ali Yazdiyning, "Zafarnoma"sidan farqi, bu asarda Amir Temur siymosi ideallashtirilgan. Ya'ni uning Faqat ijobiy jihatlari ulug'langan. Shomiy bu asarni Amir Temurga taqdim etib, ruxsat olib o'z yurtiga qaytib ketadi. Asarning kamchiligi, asar 1404-yilgi voqealar bilan cheklanib qolgan. Holbuki Amir Temur asar voqealari tugaganidan keyin ham yetti -sakkiz oy yashagan. Bu davrdagi bo'lgan voqealar asarga kiritilmagan. Shu jihatdan asarni Amir Temurning hayiti haqidagi mukammal asar deb bo'lmaydi.

Muinuddin Natanziy o'rta asrlarning mashhur tarixchi olimlaridan biri. Hayotiga oid ma'lumotlar kam. Isfahonga qarashli Natanz shahrida tug'ilgan

Ch.A.Storining ma'lumotlariga ko'ra asli Seistonlik bo'lgan. Amir Temurning nabirasi, Umarshayx Mirzoning o'g'li, Husayn Boyqaroning akasi Iskandar Mirzo saroyida xizmat qilgan. Davlatshoh Samarqandiyning so'zlariga ko'ra Natanziy Iskandar Mirzo tarixiga oid ilmiy asar ham yozgan. Asarning aniq va to'liq nomi bizgacha yetib kelmagan. Xalq orasida Anonim Iskandar nomi bilan mashhurdir. Ushbu asar 1413-yilda yozib tugallanga. Asarning tahrirlanga ikkinchi varianti ham bo'lib, u „Muntaxab ut tavorix "deb ataladi va u Shohruh Mirzoga bag'ishlanadi. Asar olamning paydo bo'lishidan Amir Temur vafotigacha bo'lgan voqealarni yoritadi. U muqaddima va uch bobdan iborat. Bu asar ko'plab yillarga tarjima qilingan va chop etilgan.

Mirzo Ulug'bek- astronom olim, davlat arbobi, buyuk mutafakkir. Amir Temurning kenja o'g'li Shohruh Mirzoning o'g'li. 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida Amir Temurning „besh yillik" yurishlari paytida tug'ilgan. Bobosining 1399-1405 yillar oralig'idagi yurishlarida ishtirok etgan. 1398-yildan unga shoir va olim Orif Ozariy ustoz etib tayinlanadi. Mirzo Ulug'bekka dastlabki ta'limni shu inson beradi. Amir Temur vafotidan so'ng, 1409-yili otasi tomonidan Movaronunnahrga hokim etib tayinlanadi va 1449-yil oktabr oyigacha mamlakatni idora qiladi. Ulug'bek ilm-ma'rifat homiysi sifatida Samarqandni Sharqning eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi.

Mirzo Ulug'bek fanning turli sohalariga oid asarlar yozgan. Ular orasida tarix ilmiga oid bo'lgan „To'rt ulus tarixi" asari alohida ahamiyatga egadir. Kitobda Odam atoning yaratilishi va islomiyatdan awal o'tgan payg'ambarlar, turklarning afsonaviy otabobolari hisoblangan Yofas ibn Nuh va uning farzandi Turkxon,

shuningdek, turk-mo'g'ul qabilalari va Chingizxon tarixi bayon etilgan. Turkxon ibn Yofas va uning Turkiston zaminida podshohlik qilgan avlodi Abuljaxon, Dibokuyxon, Kuyukxon va boshqalar, mo'g'ul va turk qavmlari va ularning podshohlari tarixi bayon etilgan.

Tarixi arba' ulus" asarida to'rt ulus o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, "o'zbek" etnonimining kelib chiqish vaqti xususida ham qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Ushbu kitobning faqat qisqartirilgan tahririning to'rt mo'tabar qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan. Ularning ikkitasi Angliyada, bittasi Hindistonda va to'rtinchi nusxasi AQShda saqlanmoqda. Mirzo Ulug'bek tarixiy asarining inglizcha tarjimasi 1838-yili Mayls tomonidan Angliyada chop etilgan. O'zbekcha tarjimasi B.Ahmedov, M.Hasaniy va N.Norqulovlar tomonidan bajarilib, 1994-yili Toshkentda chop etildi.

Asar asosan o'rta asrlar tarixini yoritadi. Asar ko'proq Chingizxon va Mo'g'ullar davrini ochib beradi. O'sha davrdagi O'rta Osiyo, Mo'g'uliston va boshqa hududlardagi jarayonlar ham aks etadi. To'rt ulus tarixi asari yozilishida Samarqand Akademiyasining bir qancha olimlari ish olib borigan. Asar Mirzo Ulug'bekning shaxsuy rahbarligi va ishtirokida yozilgan.

Temur tuzuklari -Amir Temirning davlat boshqaruvi masalalariga bag'ishlangan asari

Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so'zlovchi "Temur tuzuklari" nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, O'rta asrning bebaho tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bog'liq tarjimai xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san'atga bo'lgan nuqtai nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu bebaho qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan.

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Dariy Perviy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi.

Amir Temur — insoniyat tarixidagi eng qat'iyatli shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda, u haqidagi bilimlarimizda ham hukmdor, zobit, sarkarda, ham jangchi sifatida gavdalanadi.

References:

1. Bo'riboy Ahmedov- "O'zbekiston tarixi manbalari". Toshkent -2001.
2. Temur tuzuklari. Toshkent .1991.
3. Nizomuddin Shomiy- "Zafarnoma". Toshkent.-1996.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy- "Zafarnima". Toshkent -1997.
5. Ochildiyevna N. P. The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya

Higher Education Institutions) //Zien Journal of Social Sciences and Humanities.
– 2022. – T. 8. – C. 178-182.

6. Normamatova P., Jumayev A. FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH JARAYONI:
O'ZGARISHLAR VA ISTIQBOLLAR //Academic research in educational sciences.
– 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 956-962.